

Date: 13th July-2026

SAMARQAND REGISTON MAYDONINING DAVRIY O'ZGARISHLARI (XV-XVI ASR MISOLIDA)

Amonov Sardor Xolmurzayevich

Jumaqulov Nuriddin Yusufovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqan registon maydonining ilkiya'niy XV asr xolatidagi ko'rinishi maydondagi bugungi ko'nga qadar saqlanmagan tarixi obilaarning grafik ko'rinishlari va ularning shakllanish jarayonlari hamda kimlari tomonidan asos solingaligi yoritib berilgan qolaversa registon maydonining bo'gungi ko'ndagi ko'rinishining arxitekturasini, maxobati, bezaklari haqida ham misollar keltirilib o'tilgan

Kalit so'zlar: Minora, maqbara, madrasa, guldasta, mezana, hovuz, chorbaxari, miyonsaroy, gumbaz, balxiy gumbaz.

Keywords: Tower, mausoleum, madrasa, bouquet, mezana, pool, chorbaxari, mionsaray, dome, balkh dome.

Klyuchevyye: башня, мавзолей, медресе, букет, мезана, купальня, чорхари, миянсарой, купол, купол балха

Kirish: Istiqlolimiz sharofati, mamlakatimizning turli viloyat va tarixiy shaharlarida mavjud bo'lgan me'moriy obidalarni bust-butun holda saqlab qolib, kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ularni ta'mirlash, konservatsiyalash hamda ulardan ijtimoiy zamonaviy maqsadlarda foydalanish, ularni bu ehtiyojlarga moslashtirish, ularning atrof-muhitini obodonlashtirish, shuningdek muhofaza zonalarini saqlash kabi qator dolzarb ishlar navbati bilan o'z yechimini topib, amalga oshirilib kelinmoqda. Samarqanddagi Imom al-Buxoriy, Imom Motrudiy va Shohizinda ziyoratgohlarini, Buxorodagi Baxovuddin Naqshband, Chorbakr va Masjidi Kalon me'moriy majmualari, Farg'onadagi Axmad Farg'oniy va Burxoniddin Marg'iloniy yodgorliklarini, Surxondaryodagi Hakim at-Termiziy va Imom at-Termiziy, Xivadagi Ichan qal'a yodgorliklari, Shaxrisabzdagi Dor uttilovat, Ko'k masjid, Qarshi shahridagi Odina masjidi va Ko'k gumbaz obidalari, Toshkentdagi Hazrati Imom me'moriy majmualari va ular singari o'nlab, hatto yuzlab qadamjolarini obod va ko'rkam holga keltirish bo'yicha bajarilgan ishlar diqqatga sazovordir.

Darhaqiqat, o'tmishdan qolgan tarixiy obidalarni saqlab qolish, ta'mirlash va ulardan to'g'ri foydalana bilish o'ta murakkab, nozik didni va mahoratni, chuqur bilim va tajribani, yuksak salohiyat, kerak bo'lsa, ma'naviy poklikni talab qiladigan serqirra sohadir. "Bu sohada qandaydir ikkinchi yoki uchinchi darajali ishning o'zi yo'q.

Chunki bu - xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviyatining yuksalishi bilan bog'liq masaladir", degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov. Amir Temur hukmronligi davrida hozirgi Registon maydoni o'rnida markaziy bozor bo'lgan. Ana o'sha davrdan Samarqand jahonga mashhur ilm-fan va hunarmandchilik markazi sifatida dunyoga tanilgan. Bu yerga yetti iqlimdan donishmandlar, olimu fuzalolar



Date: 13th July-2026



kelib Mirzo Ulug'bek atrofiga to'planishgan. Son-sanoqsiz ziyoratchilar, Shohi Zinda maqbarasiga kelgan savdogarlar shaharni tomosha qilish bilan birga mashhur Samarqand qog'ozini va boshqa ko'plab turli noyob hunarmandchilik hamda yana qator noyob mollarni xarid qilishga kelganlar[1].

Temuriylar davrida shaharga asosan olti: Firuza, So'zangaron, Korizgoh, Chorsu, Shayxzoda va Ohanin darvozalari orqali kirilgan, bu taniqli darvozalardan tashqari ichki ehtiyojlar uchun Toshkentda bo'lgani kabi Samarqandda yana bir qancha kichik darvoza (eshik)lar bo'lgan deb faraz qilish mumkin. Asosiy radial yo'nalishdagi ko'chalar shahar markazida kesishgan va bu joylar juda gavjum bo'lgan. Registon maydoni ham shu yerda bo'lib, bu yerda Mirzo Ulug'bek bir nechta majmuaviy imoratlar qurdirgan.

Registondan tarqalgan asosiy ko'chalar bo'ylab bozor, savdo rastalari, toqlar hunarmandchilik ustaxonalari joylashtirilgan edi. Shaharlarga kiraverish darvozalari bo'ylab o'ndan ziyod yirik bog'lar barpo etilgan edi. Shu tariqa, Samarqand shahriga kelayotgan har bir inson betakror bog'lar qo'ynidan o'tib jannatmakon yurtga kelayotganligini his qilib turgan. "Boburnomada" Amir Temurning barpo etgan shunday masofada ikki tarafdin teraklar ekilgan xiyobon to'g'risida ma'lumot berilgan. Shaharda katta-katta hovuzlar qurilib, ular atrofida jome' masjidleri, ziyoratgoh majmualar, minoralar, hujralar, maktablar va boshqalar joylashtirilgan.

"Samarqandda hunarmandchilik va savdo-sotiq keng rivojlangan. Ularni to'g'ri tashkillashtirish uchun shahar ichida va tashqarisida katta-katta ochiq maydonlar kerak bo'lgan. Bu yerda bo'lgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo ochiq maydonlar haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "Shaharda ko'plab maydonlar bo'lib, bu yerlarda go'sht, tovuq va qushlar, non va mevalar va boshqalar sotiladi. Hammasi top-toza va ozoda. Maydonlar kecha-yu kunduz odamlar bilan to'la va savdo-sotiq avjida. Samarqand shahrida Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa joylardan keltirilgan yoki Samarqandning o'zida ishlab chiqarilgan turli xil mahsulotlar har yili sotiladi. Barcha mahsulotlarni sotish uchun shaharda joylar kamlik qilgani uchun, podshoh butun shahar bo'ylab keng savdo o'tkazishga va uning ikki tarafidan savdo rastalari joylashtirishga buyruq beradi.

Bu yo'l usti yopilib, ba'zi joylaridan yorug'lik tushishi va havo aylanishi uchun darchalar qoldiriladi. Yo'l bo'ylab ma'lum masofalarda hovuzlar bunyod etiladi" [2, 100-101 b.]. Amir Temur davrida Samarqand hitori ko'plab tarixiy yodgorliklar qurilishi bois ancha boyidi. Afsonaviy Amir Temur (Bibixonim) jome' masjidi va uning qarshisidagi Bibixonim madrasasi, shahzoda Muhammad Sulton madrasa va xonaqohi, uning yonidagi Go'ri Amir maqbarasi, mazkur obida bilan bir o'qda qurilgan Ruhobod maqbarasi, qal'a ichida bunyod etilgan Nuriddin Basir maqbarasi shular jumlasidandir. Lekin baribir Samarqandga asosiy me'moriy-tashkiliy markaz yetishmas edi. Va bu masalani Mirzo Ulug'bek hal etdi.

U hukmronligining ilk yillaridayoq Registon maydonini obodonlashtirishga kirishdi, butun va yagona me'moriy fikrni shu yerda mujassam etdi. "Qumlik joy"ning shakllanish jarayoni Samarqandda mo'g'ullar istilosi davridan, ya'ni XIII asr boshidan boshlangan. Unga qadar Registon joylashgan hududda mashhur "Jo'yi arzis" akvedukining boshlang'ich qismi joylashgan bo'lib, u joy "sarduvonik deb atalgan" [3]. Amir Temur

Date: 13th July-2026

davriga qadar shahar darvozalaridan kelgan olti asosiy yo'llarning o'zaro kesishuvida joylashgan bu hudud me'moriy jihatdan tartibga keltirilmagan edi.

Mazkur hududning janubiy tomonidan shahar ahli uchun mo'ljallagan jome' masjidi deyarli vayron bo'lgan edi, ammo Amir Temur davrida tezkorlik bilan jome' masjidi qurila boshlangandi, shuningdek Registon yaqinida Tuman oqo tomonidan gumbazli savdo majmuasi - tim qurilib vaqfga, ya'ni dindorlar mulkiga berilgan edi. Mirzo Ulug'bek me'morlarga Samarqand markazida perimetri bo'ylab ulug'vor inshootlar bilan o'ralgan to'rtburchak shakldagi maydonni yaratish masalasini qo'yadi. Hisorning geometrik markazida uning jamoat markazi hisoblanmish Registon maydoni vujudga kelgan. Bu maydon shaharning asosiy yo'llari kesishuviga yaqin joyda joylashgan. Registonning XV asrdagi qiyofasi haqida "Boburnoma"da o'qiymiz: Ulug'bek Mirzoning imoratlaridan Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibdi, Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav' toshlardin farshlar qilibdur. Xuroson va Samarqanta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay.

Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibdir, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarini tarosh qilib, islimiy va hattoyi naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqdir. Bu masjidning qiblasiga madrasa va safi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasiga bilan madrasa qiblasining samti munajjim tariyqi bila amal qilibturlar [5, 45-b.].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ruziboboyev, A. (2023). REQUIREMENTS AND THEIR SOLUTIONS FOR THE DESIGN OF UNIVERSITY SCHOOLS. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 463-466.
2. Ruziboboyev, A. (2025). UCHQIZIL SUV OMBORI ATROFIDA BOG '-PARKLAR VA DAM OLIH MASKANLARINI BARPO ETISH-EKOTURIZM VA SHAHARSOZLIKNING YANGI YO 'NALISHI. *Latin American journal of education*, 5(7), 479-483.
3. Azamat o'g, R. Z. A. (2025). TERMIZ SHAHRI LANDSHAFTI VA EKOLOGIYASINI YAXSHILASHNING INNOVATSION YO 'LLARI. *Introduction of new innovative technologies in education of pedagogy and psychology*, 2(11), 66-69.
4. Azamat o'g, R. Z. A., & Yusufovich, J. N. (2025). KO 'KALAMZORLASHTIRISH ORQALI TERMIZ SHAHRIGA KELADIGAN SHAMOL VA CHANG-TO 'ZONLAR YO 'LINI TO 'SISH USULLARI LOYIHA TAKLIFLAR. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(11), 136-139.
5. Azamat o'g, R. Z. A. (2025). TERMIZ SHAHRIDA BOG '-PARKLAR VA HIYOBONLARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA LOYIHA TAKLIFLAR. *Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology*, 2(11), 132-135.



Date: 13th July-2026

6. Azamat o'g, R. Z. A. Old Termez in Historical Sources (Xix-early XX Centuries). *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(12), 1507-1513.

7. Nazarov, B., Alikulov, S., Ochildiev, O., Khudoykulov, R., Roziboboyev, A., & Togayaliyev, S. Study of Physical and Mechanical Properties of Manure Collected on Open Soil Surfaces.

